

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

LAKUNALAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING YO‘LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’lum xalq madaniyatini tilida aks ettiradigan lakuna tushunchasi va uni yuzga keltiruvchi sabablar handa ularni bartaraf etishning yo‘llari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Lacuna, muqobilsiz leksika, to‘ldirish, leksik qatlam, lingvokulturologik birlik, til va madaniyat.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие лакуны, отражающей язык определенной национальной культуры, и причины ее возникновения, а также пути их устранения.

Ключевые слова: Лакуна, безальтернативная лексика, заполнение, лексический пласт, лингвокультурная единица, язык и культура.

Abstract: In this article, the concept of a lacuna, which reflects the language of a certain national culture, and the reasons for its occurrence, as well as ways to eliminate them, are analyzed.

Key words: Lacuna, lexicon without alternative, filling, lexical layer, linguocultural unit, language and culture.

Ma’lumki, tillar orasida o‘zaro tafovutlar mavjud bo‘ladi va ular madaniyatlarning farqliligi natijasida yuzaga keladi. Tilning leksik va frazeologik qatlamida ko‘p farqlar ko‘zga tashlanadi, ya’ni, iboralarning yoki boshqa millat madaniyatiga xos bo‘lmagan va u xalqda mavjud bo‘lmagan leksemalarning yana bir tilda ekvivalenti mavjud bo‘lmaydi.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. Ya’ni asliyat tilidagi ayrim leksik birliklar tarjima tilining leksik tarkibida uchramaydi, ularning o‘xshashi bo‘lmaydi. Ularni lacuna tushunchasi bilan nomlash mumkin.

Lakuna (lot. lacuna “bo‘shliq,” chuqurlik,” cho‘nqir joy”) – biror xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy sharoiti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalaridir [2.: 55.]. lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar asosan tillarning qiyosida seziladi [4.: 150.].

Lakunalarni muqobilsiz leksika tushunchasi bilan ham nomlash mumkin. Muqobilsiz leksika har qanday tilda uchraydigan hodisa bo‘lib, boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlarni anglatadi. Chunki bu so‘z anglatayotgan tushuncha faqat shu til madaniyatigagina xos bo‘lib, boshqa xalqlarda uchramaydi. Shuning uchun ham, Har bir til o‘zida mavjud so‘zlarning go‘zal va o‘zgacha, ichki ma’no qirralarini namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Tillardagi so‘zlarning barchasi bir-birining ma’nosini to‘la ochib berishi mumkin emas, buni asosan mavhum tushunchalar va insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi so‘zlarda ko‘rishimiz mumkin. Chunki har bir xalqda madaniyat va tarbiya shakllari turlicha. Tilimizdagi shu kabi so‘zlarni tahlilga tortish orqali, o‘zbek tiliga, o‘zbek madaniyatiga xos jihatlarni ko‘rsatish mumkin. Bu

tilshunosligimizning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Lakuna tushunchasi ilk bora tilshunos Vine va Darbelnelar tomonidan ilmiy tadbiq qilingan bo‘lib, lakunalar hodisasi ikkita til orasida yoki muayyan til va uning shevalari orasida mavjud bolishi mumkin. Masalan, o‘zbek shevalaridan o‘g‘uz lahjasi Xorazm hududi shevalarida mavjud bo‘lgan g‘ovush deb nomlanadigan o‘simlikning adabiy tilde muqobili yo‘q. Bu sheva va adabiy til orasidagi bo‘shliq, ya‘ni lakunadir.

Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqealanadi¹. Lakunalarning vujudga kelishida bir necha asosli sabablar mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi xalqlarning turmush tarzida foydalaniladigan biror predmetning yoki hodisaning boshqa bir xalq tilida mavjud emasligidir. Jumladan, bunday muqobilsiz leksikaga misol sifatida Xiva cho‘girmalarini yoki o‘zbek oshini misol qilish mumkin. Xivada qo‘y junlaridan tikiladigan cho‘girmalar boshqa bir xalqlarda yo‘q va shuning uchun bu tushuncha ham leksikasida mavjud emas. Binobarin, o‘zbek oshi o‘zbek xalqining milliy taomi bo‘lib, aynan shunday tayyorlanadigan ovqat ayrim xalqlarda mavjud emasligi natijasida bu tushuncha o‘sha xalq tilining muqobilsiz leksikasiga mansub bo‘ladi. Boshqa millatlar ichki madaniyatida mavjud, ammo bizning xalqimizda mavjud bo‘lmagan tushuncha va hodisalar esa bizning tilimizning muqobilsiz leksika qatlamiga mansub bo‘ladi, albatta.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar orasidagi farqlarni ko‘rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma‘nosini anglatuvchi lawyer so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan attorney “vakil”, barrister “oliy sularda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan advokat”, “solicitor” “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda qatnashish huquqiga ega”; “counsel” “yuristkonsult”, counsellor “maslahatchi”, advocate “ oliy darajadagi advokat” kabi so‘zlar ham qo‘llaniladi. Mazkur ifodalarga o‘zbek va rus tillaridagi faqat advokat so‘zigina muqobil bo‘la oladi².

Ma‘lumki, o‘zbek tilida otaning otasiga ham, onaning otasiga ham buvi, otaning onasiga ham, onaning onasiga ham esa buva deb murojaat qilinadi. Ammo turk, koreys tillarida bu tushunchalarning har biri alohida so‘zlar orqali ifodalanadi. Shundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida otaning otasi, onaning otasi, otaning onasi, onaning onasi tushunvhalari mavjud bo‘lsa-da, ular faqat ikkita so‘z, ya‘ni buvi va buva bilan ifodalanadi. Demak, bu so‘zlar o‘zbek tilidagi lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Lakunalarga lingvokulturologik birlik sifatida qaralishining asosiy sababi shundaki, lakunalar aynan xalqning madaniyati orqali tilimizda namoyon bo‘ladi. Ular jamiyatning muloqot shakliga, turli urf-odat va an‘analariga, faqat jamoagagina tushunarli bo‘lgan jamoaviy turmush tarsi va madaniyatdan kelib chiqqan leksik qatlamiga bog‘liq bo‘ladi.

Lakunalar ikkita millat orasidagi muloqotning tushunarsiz bo‘lishiga, bir necha mashhur asarlarning tarjima qilib bo‘lmaslikka sabab bo‘ladi, shuning uchun lakunalarni bartaraf qilish yo‘llarini izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Vinay J. P., darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l’anglais. –P aris, 1958. –P. 10.

² Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 150.

U yoki bu lingvomadaniyat jamoasining milliy xususiyatlarini ifodalovchi lakunalar chet tillarni o'rgatishda o'ziga xos to'siq sanaladi. Biroq madaniyatlararo muloqot tajribasi mazkur madaniyatlarning milliy o'ziga xos farqlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda turli usullarning mavjudligini ko'rsatadi. Binobarin, G. A. Antipov, O. A. Donskix, I. K. Markovina va Y. A. Sarokinlar ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning ikki: to'ldirish va kompensatsiyalash usullariga ajratishadi³.

Lakunalarni to'ldirish usulida bartaraf etish yo'li ko'p qo'llaniladi va bunda biror millatga xos bo'lgan, ammo boshqa millatda mavjud bo'lmagan lakunani mavjud bo'lgan tildagi asl shaklida o'zga tilga o'tkazish tushuniladi. Misol uchun, U restoranda ziravorlangan xom go'shtdan tayyorlanadigan xakepeter olib kelishni buyurdi. Yuqoridagi gapda xakepeter so'zining muqobili o'zbek tilida mavjud bo'lmaganligi sababli aynan shu so'zni o'zini keltirib, lakunaning o'rnini to'ldirilgan.

Shunday qilib, lakunalar bir tarfdan millatning alohida madaniyatini, urf-odatlarini akslantirib tursa, ikkinchi tomondan bartaraf qilinmasa, salbiy ta'sir bildiradi. Ya'ni millatlarning bir-birining madaniyatini yoki tilini o'rganishida to'siq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. –Toshkent: TDSH, 2017.
2. Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 150.
3. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова, –М: Русский язык, 1980 –С. 53.
4. Vinay J. P., darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –P aris, 1958. –P. 10.
5. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А., Текст как явление культуры. Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989.
6. Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – Масква: Наука, 1977.
7. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М.: Высш. шк., 1986.

³ Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А., Текст как явление культуры. Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989.